

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 166 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISH VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
<i>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</i>	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
<i>Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi</i>	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
<i>Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna</i>	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
<i>Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich</i>	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH	48
<i>Xodjimatrov Xamidullo Mamirjonovich</i>	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
<i>Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich</i>	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
<i>Axatova Shahnoza</i>	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
<i>Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna</i>	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
<i>Хошимова Камилла Навфал қизи</i>	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
<i>Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна</i>	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
<i>Файзиев Умуркул Шухратович</i>	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
<i>Jalilov Jamshid G'anjionovich</i>	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
<i>Ўролова Севара Бехзод қизи</i>	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
<i>Narziyev Hayotjon Azamatovich</i>	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudjetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
<i>Allakuliyev Akmal Baltayevich</i>	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
<i>Parpiyev Jaxongir Iloxomjonovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI	126
<i>Xalikov S. X.</i>	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALINI BAHOLASH	131
<i>Zufarov Akmal Gulamiddinovich</i>	



AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	



RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Radjabov Umurzoq Ablakulovich

Navoiy innovatsiyalar universiteti
Surxondaryo kampusi direktori, i.f.n., dots.

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli moliyaviy xizmatlar transformatsiyasi jarayonida soliq boshqaruvi samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar o'rganilgan. Maqolada raqamli moliyaviy texnologiyalar (FinTech), elektron to'lov tizimlari, va ularning soliq ma'murchiligi mexanizmlariga integratsiyalashuvi jarayonlari tahlil etilgan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq nazoratini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni raqamli tahlil asosida qayta ishlash hamda fiskal shaffoflikni ta'minlash yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida soliq boshqaruvi samaradorligini oshirishning konseptual yondashuvlari shakllantirilgan hamda amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli moliyaviy xizmatlar, soliq boshqaruvi, raqamli iqtisodiyot, FinTech texnologiyalari, soliq ma'murchiligi, fiskal shaffoflik, raqamlashtirish jarayoni, samaradorlik omillari.

Abstract. This article examines the key factors influencing the improvement of tax administration efficiency in the process of digital financial services transformation. The study analyzes the integration of digital financial technologies (FinTech), electronic payment systems, and their impact on tax administration mechanisms. Furthermore, it explores the directions of automating tax control, processing data based on digital analytics, and ensuring fiscal transparency in the context of the digital economy. As a result of the research, conceptual approaches to enhancing tax administration efficiency have been developed, and practical recommendations have been proposed.

Key words: digital financial services, tax administration, digital economy, FinTech technologies, tax management, fiscal transparency, digitalization process, efficiency factors.

Аннотация. В данной статье изучены основные факторы, влияющие на повышение эффективности налогового администрирования в условиях трансформации цифровых финансовых услуг. В работе проанализированы процессы интеграции цифровых финансовых технологий (FinTech), электронных платежных систем и их механизмов в налоговое администрирование. Кроме того, рассмотрены направления автоматизации налогового контроля, обработки данных на основе цифрового анализа и обеспечения фискальной прозрачности в условиях цифровой экономики. По результатам исследования сформированы концептуальные подходы к повышению эффективности налогового управления, а также разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: цифровые финансовые услуги, налоговое администрирование, цифровая экономика, технологии FinTech, налоговое управление, фискальная прозрачность, процессы цифровизации, факторы эффективности.

KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda raqamli texnologiyalar global iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur ta'sir qilmoqda. Xususan, moliya, ta'lim, sog'liqni saqlash, transport va davlat boshqaruvi tizimlarida raqamlashtirish jarayonlari jadal rivojlanmoqda. Raqamli moliyaviy xizmatlar (FinTech), elektron to'lov tizimlari, onlayn bank xizmatlari va mobil ilovalar nafaqat moliyaviy operatsiyalarning tezligi va qulayligini oshirmoqda, balki soliqqa tortish jarayonlarini ham soddalashtirish va shaffolashtirish imkoniyatini yaratmoqda.

Jahonda raqamli moliyaviy xizmatlar rivoji iqtisodiy samaradorlikni oshirish, fiskal nazoratni kuchaytirish va yashirin iqtisodiyot bilan kurashishning muhim vositasi sifatida tan olinmoqda. Ko'plab davlatlar elektron soliq hisoboti, onlayn nazorat-kassa tizimlari va raqamli monitoring platformalarini joriy etib, soliq tushumlarini barqarorlashtirish va soliqqa tortish jarayonlarining shaffofligini ta'minlamoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt

va katta ma'lumotlar (Big Data) tahliliga asoslangan avtomatlashtirilgan soliq nazorati ilg'or davlatlarda samarali boshqaruvning yangi standartlarini belgilamoqda.

O'zbekiston sharoitida ham soliq tizimining raqamlashtirilishi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Prezidentning PQ-5252 va PQ-190 qarorlarida belgilangan chora-tadbirlar elektron cheklar, onlayn tranzaksiyalar va raqamli fiskal belgilar tizimining joriy etilishini nazarda tutadi. Bu jarayonlar orqali nafaqat soliq jarayonlari soddalashmoqda va shaffoflik oshmoqda, balki davlat byudjeti tushumlarini barqarorlashtirish, raqamli moliya xizmatlari ekotizimini rivojlantirish va soliqqa tortish tizimining samaradorligini oshirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Shu tariqa, raqamli moliyaviy xizmatlar transformatsiyasi O'zbekiston soliq tizimi uchun strategik ahamiyat kasb etadi. U nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki soliq boshqaruvining zamonaviy, shaffof va adolatli tamoyillar asosida shakllanishini ta'minlaydi. Shu bois, mazkur mavzu nafaqat ilmiy, balki amaliy nuqtai nazardan ham dolzarb va istiqbolli hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Professor Yuguo Zhouning tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyotning yuqori samaradorlik, axborot almashinuvi va chegarasiz innovatsiya xususiyatlari an'anaviy soliq yig'ish va boshqaruv modellariga tub o'zgarishlar olib kelishini aniqlagan. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot soliq bazasini kengaytirish, soliq tushumlarini oshirish va soliq shaffofligini kuchaytirish imkoniyatini taqdim etsa-da, uning murakkabligi va yashirinligi an'anaviy soliq tizimlari uchun nazorat qiyinchiliklarini oshirishini ham qayd etgan [1].

Xorij olimi Milla Sepliana Setyowatining izlanishlarida, blokcheyn texnologiyasining soliqqa tortish va soliq boshqaruvi tizimlarini modernizatsiyalashda, xususan, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS/VAT) tizimida elektron faktura va raqamli tekshiruv jarayonlari orqali shaffoflik va hisobdorlikni oshirish imkoniyatlari mavjudligini ta'kidlagan. Shu bilan birga, infratuzilma tayyorligi, kadrlar malakasi va hukumat siyosati blokcheynni joriy etish jarayonida muhim omillar ekanligini aniqlagan [2].

Professor F.O. Matytsinning ilmiy izlanishlarida, raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq boshqaruvini takomillashtirishda huquqiy jihatlar, xususan, ma'lumotlar almashinuvi, avtomatlashtirilgan monitoring va raqamli xizmatlardan foydalanish orqali soliq ma'muriyatchiligining yangi arxitekturasini shakllantirish zarurligini aniqlagan [3].

Yana bir xorij olimi Bin Liuning tadqiqotida, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi korporativ darajada soliq yukini sezilarli darajada kamaytirishi mumkinligini topgan; bu jarayonda soliq to'lovchilarning ma'lumotlari, raqamli xizmatlar va ma'muriyatchilik tizimlari ham muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, soliq boshqaruvi samaradorligini oshirish maqsadida raqamli moliya va axborot infratuzilmasini kuchaytirish, hududlararo ma'lumot almashuvini rivojlantirish zarurligi ta'kidlangan [4].

Mahalliy olim Buranova Lola Vakhobovna tadqiqotlarida, O'zbekistonda soliq boshqaruvi tizimida raqamlashtirish, shaffoflikni oshirish va investorlar uchun soliq muhitini yaxshilash yo'lida raqamli xizmatlar hamda elektron soliq ma'muriyatchiligi strategik ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. Muallif elektron cheklar, onlayn tranzaksiyalar, fiskal belgilar va raqamli monitoring orqali soliq jarayonlarining boshqaruv samaradorligini oshirish mumkinligini ko'rsatgan [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda raqamli moliyaviy xizmatlar transformatsiyasi sharoitida soliq boshqaruvi samaradorligini oshirish omillarini o'rganish uchun tizimli, tahliliy va qiyosiy yondashuvlardan foydalanildi. Maqolada raqamli moliyaviy texnologiyalar (FinTech), elektron to'lov tizimlari va ularning soliq ma'muriyatchiligi jarayonlariga integratsiyalashuvi, shuningdek, soliq bazasini kengaytirish, soliqqa tortish shaffofligini oshirish va soliq to'lovchilar intizomini mustahkamlashdagi roli statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va amaliy misollar asosida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALARI

So'nggi yillarda raqamli moliyaviy xizmatlar (DFS)ning kengayishi nafaqat moliyaviy kirish imkoniyatlarini oshirdi, balki soliqqa tortish nuqtai nazaridan ham yangi imkoniyatlar yaratdi. Masalan, OECD hisobotiga ko'ra, soliq ma'muriyati organlarining ~70 % dan ortig'i sun'iy intellekt (AI) va analitik usullarni qo'llash orqali soliq tushumlarini oshirish va soliqqa bo'yin tovlash holatlarini kamaytirish yo'lida ish olib bormoqda. Shuningdek, Afrikadagi tadqiqot natijalari DFS hamda soliq bazasining o'sishida mustahkam omil ekanligini ko'rsatgan (masalan, mobil pul hisoblari orqali hozirda juda ko'p aholiga moliyaviy xizmatlar yetib bormoqda). Bu holat O'zbekistonda ham muhimdir: raqamli to'lovlar, onlayn savdo, fiskal belgilarni joriy etish orqali to'lovchilarning iqtisodiy faoliyati va soliq bazasi yanada shaffof bo'lishi mumkin.



Tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- DFS kengayishi soliq to'lovchilarning raqamli faoliyatini oshiradi va shaffoflikni yaxshilaydi.
- Soliq to'lovchilarning intizomi va majburiyatlari avtomatlashtirilgan tizimlar orqali yaxshilanadi.
- Ammo DFS bazasidagi soliq siyosati noto'g'ri belgilanganda yoki raqamli xizmatlar to'liq nazorat qilinmaganda, fiskal noaniqliklar va adolatsizliklar yuzaga kelishi mumkin.

1-jadval. DFS va soliq bazasi kengayishi bo'yicha tanlangan indikatorlar [6]

Ko'rsatkich	Xorij tajribasi	Natija	Izoh
DFS ulushi (moliya bilan bog'liq xizmatlardan foydalanuvchilar)	Afrikada mobil pul hisoblari: 40 % aholi bilan (2019)	Yuqori	DFS kengayishi yuqori bo'lgan mamlakatlarda soliq bazasini kengaytirish imkoniyati borligi ko'rinmoqda
AI/analitikni soliq ma'muriyatida qo'llash darajasi	OECD ma'lumotida soliq organlarining 70 % dan ortig'i AI tamoyillarini qo'llamoqda	Yuqori	Raqamli moliyaviy xizmatlar va ularning tahlili soliq nazoratida muhim rol o'ynaydi
Soliq tushumlari o'sish foizi (raqamli tranzaksiyalar orqali)	Hindistonda raqamli to'lovlar oshishi bilan QQS tushumi mos ravishda o'sdi	O'sish	Raqamli moliyaviy xizmatlar soliq tushumlari uchun qo'shimcha manba bo'lishi mumkin

Yuqoridagi natijalar shuni bildiradiki: DFSning kengayishi va soliq ma'muriyati tomonidan raqamli tahlil va infratuzilmaning kuchaytirilishi birbirini to'ldiradi. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda imkoniyat katta — misol uchun, onlayn to'lovlar va elektron cheklar orqali soliq bazasi yanada kengayishi mumkin. Biroq, bu bilan birga raqamli xizmatlar bilan bog'liq xavf-xatarlar (masalan, ma'lumotlarning xavfsizligi, raqamli savodxonlik darajasi, xizmatlarning adolatligi) ham ehtiyotkorlik bilan nazorat qilinishi lozim.

Raqamli moliyaviy xizmatlar jamiyatga kirib borгани sayin, soliq ma'muriyati ham avtomatlashtirilgan boshqaruv va nazorat tizimlariga o'tmoqda. OECD hisobotida ko'rsatilishicha, soliq ma'muriyatlarining ~80 %ga yaqini raqamli transformatsiya strategiyasini ishlab chiqqan va yuqori boshqaruv organlari tomonidan nazorat qilinmoqda. Masalan, «machinereadable tax law» (kompyuter o'qiy oladigan soliq qonunchiligi) joriy etilishi orqali soliq organlari tomonidan avtomatik tahlil va nazorat imkoniyati oshmoqda. Bu jarayonda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili, onlayn monitoring tizimlari va fiskal belgilar muhim rol o'ynaydi — natijada soliq to'lovchilarning xatti-harakati tezroq va aniqroq kuzatilmoqda.

- Avtomatlashtirilgan tizimlar soliq nazoratini samaraliroq qilmoqda: nazorat ostidagi operatsiyalar kamaymoqda.

- Tizimlar ichida ma'lumot almashinuvi va standartlashtirish yuqorilangani uchun soliq ma'muriyati qarorlari tezroq qabul qilinmoqda.

- Shu bilan birga, texnologik infratuzilma past bo'lgan hududlarda yoki raqamli savodxonligi past bo'lgan sub'ektlar uchun notenglik va xizmatlardan chetlanish xavfi bor.

2-jadval. Avtomatlashtirish va soliq boshqaruvi samaradorligi bo'yicha indikatorlar [7]

Ko'rsatkich	Xorij tajribasi	Natija	Izoh
Raqamli strategiya ishlab chiqqan soliq ma'muriyatlari foizi	80 %	Yuqori	Raqamli transformatsiya strategiyasi soliq boshqaruvida asosiy bosqichdir
„Machinereadable tax law“ joriy etilgan mamlakatlar foizi	31.5 % barcha soliq qonunlari uchun	O'rta	Qonunchilikni raqamlashtirish soliq jarayonlarini avtomatlashtirishga xizmat qiladi
AI qo'llanilmoqda deb bildirgan ma'muriyatlar foizi	72 % tax ma'muriyatlari	Yuqori	AI soliq to'lovchilarning xatti-harakatini kuzatishda va firibgarlikni aniqlashda muhimdir

Avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalarning soliq ma'muriyati jarayonlariga tatbiqi yuqori samaradorlik va raqamli iqtisodiyotga moslashuvni ta'minlamoqda. O'zbekistonda ham onlayn monitoring, fiskal belgilar, elektron cheklar joriy etilishi bu jarayonni tezlashtirishga xizmat qiladi. Biroq, texnologik inkluzivlik — ya'ni barcha soliq to'lovchilarning raqamli servislar bilan teng foydalanishi — muhim omilga aylanadi. Infratuzilma va raqamli savodxonlik bo'yicha zaifliklar bo'lsa, bu adolatsizlikka olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, tahlil qilingan ikki asosiy yo'nalish — DFS kengayishi va soliq ma'muriyati avtomatlashtirish — birbirini yaxshi to'ldiradi va soliq boshqaruvi samaradorligini oshirishda mazkur omillar strategik rol o'ynaydi. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatdiki, raqamli moliyaviy xizmatlarning kengayishi soliq

bazasini kengaytirish uchun muhim manba bo'lishi mumkin va avtomatlashtirilgan, raqamli soliq ma'muriyati esa mazkur bazadan samarali foydalana oladi. Shu bois, O'zbekistonda bu yo'nalishlarni rivojlantirish uchun: raqamli infratuzilmani kuchaytirish, to'lovchilarning raqamli savodxonligini oshirish, qonunchilikni raqamli formatga o'tkazish va davlat hamda xususiy sektor o'rtasida integratsiya darajasini oshirish zarurdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot davomida raqamli moliyaviy xizmatlar (DFS), elektron to'lov tizimlari va avtomatlashtirilgan soliq boshqaruvi jarayonlarining soliq tizimi samaradorligiga ta'siri tizimli, tahliliy va qiyosiy usullar orqali o'rganildi. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatdiki, raqamli moliya xizmatlarining kengayishi va soliq ma'muriyati avtomatlashtirilgan tizimlar orqali ishlashi soliq bazasini kengaytirish, soliq tushumlarini barqarorlashtirish, shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida elektron cheklar, onlayn tranzaksiyalar, fiskal belgilar va raqamli monitoring tizimlarini joriy etish orqali soliq boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun mustahkam huquqiy va texnologik infratuzilma yaratilmoqda. Shu bilan birga, raqamli savodxonlik, ma'lumotlar xavfsizligi va barcha soliq to'lovchilarning teng imkoniyatlari ta'minlanishi muhim omil sifatida aniqlangan.

Raqamli infratuzilmani mustahkamlash: To'lov tashkilotlari, tijorat banklari va elektron savdo platformalarini raqamli soliq tizimi bilan integratsiyalashuvini kengaytirish, tizim uzluksiz ishlashini ta'minlash.

Raqamli savodxonlikni oshirish: Soliq to'lovchilarga elektron xizmatlardan samarali foydalanish imkoniyatini berish uchun treninglar, onlayn qo'llanmalar va mobil ilovalar orqali ma'lumot berish.

Qonunchilikni raqamli formatga o'tkazish: Soliq qonunchiligini "machine-readable" formatga o'tkazish, AI va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlariga integratsiya qilish.

Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash: Raqamli tizimlarda shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarning xavfsizligini oshirish uchun zamonaviy kriptografiya va server infratuzilmasini joriy etish.

Xalqaro tajribalarni joriy etish va takomillashtirish: OECD va boshqa ilg'or davlatlar tajribasidan kelib chiqib, raqamli moliyaviy xizmatlar va soliq ma'muriyati samaradorligini oshirishning eng yaxshi amaliyotlarini O'zbekistonda qo'llash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zhou Y. Impact of Digital Economy on Efficiency of Tax //Proceedings of the 2025 International Conference on Financial Innovation and Marketing Management (FIMM 2025). – Springer Nature, 2025. – P. 30.
2. Setyowati M. S. E-Readiness of Blockchain Technology in Modernization of Tax Administration in Indonesia // Proceedings of the 1st International Symposium on Indonesian Politics. – EAI, 2019.
3. Матыцин ф. О. Совершенствование налогового администрирования в условиях цифровой экономики: правовые аспекты //труды по интеллектуальной собственности. – 2023. – т. 47. – №. 4. – с. 27-33.
4. Liu B. Research on the Influence of Digital Economy on the Tax //Proceedings of the 2023 International Conference on Management Innovation and Economy Development (MIED 2023). – Springer Nature, 2023. – T. 260. – C. 271.
5. Vakhobovna B. L. IMPROVING TAX ADMINISTRATION: IMPACT ON SUSTAINABILITY AND GROWTH OF FINANCIAL POTENTIAL //IMRAS. – 2025. – T. 8. – №. 4. – P. 192-194.
6. Weiqun X., Xing L. Can the digitalization of tax administration promote corporate digital transformation? Empirical evidence from China //International Review of Economics & Finance. – 2025. – C. 104634.
7. Vozár A., Bán E. Digitalisation, digital transformation–In the practice of the National Tax and Customs Office //Public Finance Quarterly= Pénzügyi Szemle. – 2024. – T. 70. – №. 1. – C. 83-107.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100